XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-020-3-49-K/24 Zarbdor tumani

Zarbdor tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari hamda tuman soliq inspeksiyasining 2024-yil 29-noyabrdagi 01/00140-sonli xatiga asosan Zarbdor tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientlarni tasdiqlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Zarbdor tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i E.Erkabayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin, takliflari inobatga olinib, ma’qullansin.

2. Zarbdor tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientlar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi ilovalarda ko’rsatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Q.Nurmatov va tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i E.Erkabayevlarga:

Ushbu qaror kuchga kirgandan so‘ng besh kunlik muddat ichida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2025-yilga belgilangan soliq stavkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimligi matbuot kotibi (O‘.Sulaymonov) ga ushbu qaror matbuotda rasmiy e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining veb sayti, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

6. Mazkur Qaror 2025-yilning 1-yanvar sanasidan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Q.Nurmatovva tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i E.Erkabayev, bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Qodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  RUZIYEV ZAFAR SHAROPOVICH

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-020-3-49-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Adirobod MFY	0.85	42 075 000.00	0.79	291.98
2	Andijon MFY	0.85	42 075 000.00	0.77	284.59
3	Dustlik MFY	0.90	44 550 000.00	0.79	291.98
4	Yoshlik MFY	0.82	40 590 000.00	0.77	284.59
5	Lalmikor MFY	0.90	44 550 000.00	0.79	291.98
6	Mustakillik MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
7	Navbaxor MFY	0.82	40 590 000.00	0.77	284.59
8	Navoiy MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
9	Navro‘z MFY	0.90	44 550 000.00	0.79	291.98
10	Nurafshon MFY	0.82	40 590 000.00	0.76	280.90
11	Nurobod MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
12	Oybek MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
13	Oqar MFY	0.82	40 590 000.00	0.77	284.59
14	Oqbuloq MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
15	Ravot MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
16	Taraqqiyot MFY	0.90	44 550 000.00	0.77	284.59
17	Tinchlik MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
18	Toza urug‘ MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
19	Toshkesgan MFY	0.85	42 075 000.00	0.77	284.59
20	Sharq Yulduzi MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
21	Shodlik MFY	0.90	44 550 000.00	0.77	284.59
22	Yangi xayot MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38
23	Yangikent MFY	0.82	40 590 000.00	0.77	284.59
24	Yangiobod MFY	0.90	44 550 000.00	0.81	299.38